

**NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR ESHITUV IDROKINI O'YINLAR
YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI**

Egamberdiyeva Maftuna
KIUT xalqaro universiteti 1-bosqich talabasi

Annotasiya:

Ushbu maqolada nutq kamchiligi bo'lgan bolalarda eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirish usullari keng yoritilgan.

Kalit so'z: nutq nuqsoni, eshitish idroki, o'yin, maxsus ta'lim, rivojlanish, ta'lim.

Introduction

Nutqida nuqsoni bor bolalarga ham keyingi yillarda ilg'or o'qituvchi tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib kelmoqda. Didaktik o'yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o'quv tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtirildi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og'zaki bayon etish, ko'rgazmali amaliy metodlarining elementlari qo'llaniladi. Shu xususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

- ta'limni hayotda bo'lib o'tgan ijtimoiy voqealarga tenglashtirish ularni qiyosiy tarzda tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu o'yindan tarix geografiya darslarida unumli foydalaniladi: bir o'qituvchi Amir Temur, Simmulativ o'yin boshqasi Boyazid, qolganlari sarkarda, askarlar ro'lida ishtirok etadi, shu yo'l bilan ta'lim bo'lib o'tgan tarixiy voqeaga qiyoslab tashkil etiladi. Simmulativ o'yinlarning bir ko'rinishi inseniroyka (rollarga ajratib o'qish) metodidir. Boshlang'ich sinflarda badiiy matnlar, yuqori sinflarda badiiy asarni rollarga ajratib o'qitish an'anasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga adabiyot o'qituvchilari "Tuya bilan bo'taloq" asarini o'qitganda bir o'quvchi yozuvchi, ikkinchi o'quvchi tuya, uchinchi o'qituvchi esa bo'taloq so'zlarini o'qib ishtirok etishadi.

Situativ o'yinlar asta-sekin maktab tajribasida o'z o'rnini topib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, xarid qilish kabi turli hayotiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish situativ o'yinlar sirasiga kiradi. Amaliy metodlar. Ta'limning amaliy metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi. Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

1. Laboratoriya tajribasi o'quv ustaxonalarida turli topshiriqlarni bajarish o'quv-ishlab chiqarish sexida, o'quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg'ich, sirkul va boshqalardan foydalanib qirqish o'lchash kabi ishlarni bajaradilar.
2. Elektron xisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o'quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlaridan hisoblanadi.

3. Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq- o`rganilgan bilimlarni turli o`quv sharoitlariga tadbiq etish yo`lidir. Mashq vositasida turli malakalar- intellektual va aqliy, xususiylar (masalan, matematika bo`yicha) va umumiy (masalan, barcha o`quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

Maxsus ta`lim jarayonida qo`llanuvchi interfaol o`yinlar.

Hozirgi paytda zaif eshituvchi bolalarning nutqini o`zaro muloqotlar orqali rivojlantirish va eshitish idrokini rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni xisobga olgan holda o`qituvchi va o`quvchilar guruhi faoliyat ko`rsatishlari zarurligi ma`lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o`quvchi shaxsiga ijobiy tasir ko`rsatadi. O`zaro muloqot zaif eshituvchi bolalarda fikr almashish va so`zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi. Zaif eshituvchi bolalar shaxsiy sifatleri shakllanishida nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirish eshitish idrokini rivojlantirishda interfaol o`yinlarning ahamiyati katta. Ma`lumki rolli o`yinlar obektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda ta`lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat faollashtiradi va motivlashtiradi. O`yin o`quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta`lim tarbiya berish ularni amaliyotda qo`llash ko`nikmalarini hosil qilishda mashg`ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o`yin tariqasida uyushtirishga e`tibor berilmoqda. Xaqiqatdan ham bola har qanday mashg`ulotga qaraganda o`yinga tez intiladi va qiziqadi. Rollarga asoslangan o`yin ta`lim usuli sifatida o`quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib shaxs sifatida shakllantiradi. Ro`lli o`yinlar bolaning erkin fikrlashi suhbatdoshiga nimadir aytishi, so`rashi, isbot qilishi, tushuntirishga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farqli ravishda rolli o`yinlar nimaga? va nima uchun? kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib o`yinda qatnashayotgan o`quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O`quvchilar o`yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan imo ishoralaridan o`qish savollar berish savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar. O`quvchilar o`yinni aniq maqsadga yo`naltirgan holda amalga oshirsa kutilgan maqsadga erishish mumkin. Rolli o`yinlar o`quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo`lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O`quvchi o`yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirok etishi mumkin. Lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda ro`lli o`yin ta`limning an`anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo`l qo`yilgan kamchiliklarni o`yin jarayonida emas balki, undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo`llash muhim ahamiyatga ega. O`quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda oldin o`zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda ularning so`z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o`yinlardan foydalanish mumkin. O`quvchilarga individual yondashib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o`stirishni ta`minlaydi. O`quvchilar diqqati topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish uzun belgilariga qiziqishlarini oshirishi kerak. Bu ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Ta`kidlash joizki soddalik, bir xillik, xoxishsiz takrorlanishlar bolalarni toliqtirib befarq qilib qo`yadi. O`yin davomida kim tez bajardi? Deb faollikni oshirish ularda qiziqish uyg`otadi. Shuningdek topshiriqlarni bajarishda bolalar g`olib chiqish boshqalardan orqada qolmaslik ularni bajarishga qodir ekanini ko`rsatish hissi bilan harakat qiladilar. Quyidagi shu

maqsadga yo`naltirilgan bir necha usullarni keltirib o`tamiz. Nutqida nuqsoni bo`lgan bolalar eshitish idrokini rivojlantirishda o`zaro bog`liqlik gaplardan matn tuzish malakasini hosil qilish, erkin fikr yuritish munosabatini bemaolol bayon qilishga o`rganish uchun Djeneon, Djonson usuli uch to`rt o`quvchining bir vazifani bajarishga asoslangan usul nihoyatda samaralidir. Masalan, sinfdagi bir o`quvchi muayyan qoidaga ko`ra, soniga ko`ra, ixtiyoriga ko`ra ikkiga bo`linadi, har bir o`quvchi bir bo`lak qog`ozga ta`rifga asoslangan bir jumla yozadi. Bir guruh o`quvchilari ijobiy baxo, ikkinchi guruh salbiy baxo berishadi. Masalan, Nafisa a`lochi qiz. Nodira jaxldor o`quvchi va shu kabi. Xar bir guruhdan bir o`quvchi oqlovchi, qoralovchi vazifasida chiqadi. Har ikki guruh o`quvchilari raqib guruhga xos fikrining aksini isbotlashga urinadilar. O`qituvchi o`quvchilarga topshiriq mohiyatini tushuntirishda og`zaki daktil va imo ishora nutqidan foydalaniladi. Agar zaif eshituvchi o`quvchi topshiriqni og`zaki nutq vositasida bayon etishga qiynalsa imo ishora yoki daktil nutqi vositasida bayon etadi, so`ng o`qituvchi o`quvchini vazifani og`zaki nutq vositasida bajarishga undaydi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalar so`zlashuv nutqiy rivojlantirishi jarayonidagi quyidagi usul ijobiy natija beradi: 1 dan 10 gacha raqam yozilgan qog`oz bo`laklari o`qituvchi stoliga qo`yiladi. Yoki qo`lida bo`ladi. O`qituvchi o`quvchilarga omadini sinab ko`rishni taklif etadi. Qaysi o`quvchini necha raqam chiqsa shunga sodda gap tuzish kerak. Muhimi, ikki va undan katta raqam chiqqan bo`lsa mazmunan o`zaro bog`liq matn tuzish kerak. Mavzu erkin. O`quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar tashigan ma`no xususiyatlari ham aniqlanishi zarur. Nutqida nuqsoni bo`lgan bolalar yozma bog`langan nutqini rivojlantirish o`quvchilarni qiziqitirish va e`tiborini bir nuqtaga jalb etish uchun quyidagi topshiriq beriladi. O`quvchi yonida o`tirgan sherigiga o`z tilaklarini bildirish kerak. Bu topshiriq shaklini biroz o`zgartirish mumkin. Ota-onasiga boshqa mamlakatda yashovchi do`stiga maktub yozish topshiriladi. Bunda, albatta xat matnida qo`llanilgan gaplarning mazmuniy xususiyatlari aniqlanishi lozim. Nutqida nuqsoni bo`lgan bolalar og`zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishda klaster metodi unumli ekanligini alohida takidlash kerak. Klaster metodi umuman bir tushuncha oid turli tushunchalarni birlashtirib tasavvur hosil qilish imkoniniberadi. Masalan, o`quvchilarga muayyan tushunchani berib, uning sifatlarining aniqlash topshirilishini berish mumkin. O`zbekiston qanday davlat? So`rog`iga boy, xususiy, xuquqiy, buyuk, ilg`or, yetakchi, demokratik, obod, kabi sifatlarini birlashtiradi. Bu so`zlar shuningdek tuzulishiga ko`ra ham guruhlashtirilishi mumkin. Yoki o`quvchilarning tanish bo`lgan asar, teatr, kino multfilm, qahramonlarining sifatlarini sifatlash topshiriladi. Masalan, Zumrad va Qimmat ertagi qahramoni Zumradga shunday ta`riflar berish mumkin: jabrdiyda, bardoshli, chidamli, kuchli ishonchli, mehribon go`zal g`amxo`r. Bu ta`riflarning nechog`li asosli yoki asossiz ekanini dars jarayonida baxs munozara vositasida aniqlanadi. Biror so`zning har bir tovushi uchun alohida so`z topish taklif qilinadi. Masalan, odob, o`y, do`st, oyna, bosh. O`qituvchining topshirig`i bo`yicha bir o`quvchi yig`ma polotnoga boshqa bolalar esa stolning chap tomoniga olma rasmini qo`yadilar. Ular shu narsalarga daxldor sifatlarini daktil xarflar yordamida og`zaki talaffuz qiladilar. Masalan, olma-shirin, nordon sho`r, dumaloq, qizil, cho`zilchoq. So`ngra meva sabzavotlarning belgi xususiyatlarini solishtirib o`xshash va farqli jihatlarini topadilar. O`qituvchi “tun” deganda o`quvchilar ko`zlarini yumadilar. “Kun” deganda ko`zlarini ochib javob beradilar. Ma`lum bir narsaning belgisini, xossasini, aniqlash vazifasini beradi. Masalan, xushbo`y gul, oq gul, chiroyli gul qizil gul, suniy gul. O`qituvchi polotno yoniga uchta xayvon

tasviri tushurilgan rasmlarni qo'yadi. Rasmlar yoniga ma'lum raqamlarni joylashtiradi. (quyon4, bo'ri5, ayiq6). Shu raqamlardan ko'rsatilgan songa muvofiq hayvonning xususiyatini sanab berish kerak. Masalan, quyon4- oppoq, izchil, chaqqon, qo'rqqoq. O'qituvchi ikkita-uchta rasmlarni (daraxt, olma, qiz) tomondan, ko'rsatib shulardan birini tanlashi tavsiya etadi. O'quvchilar rasmlardan birini tanlashgach o'qituvchi ular haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar narsalarning belgisiga ko'ra savol berishadi va uning nima ekanligini topadilar. Masalan, kattami? Shirinmi? Dumaloqmi? Qizilmi? Kiyiladimi? Va xakazo. O'quvchi bu savollarga faqat "xa" yoki "yo'q" deb javob beradi. O'qituvchi bu ko'rinishdagi o'yin jarayonini tashkil etishda o'z faoliyatini rejaga va qo'yilgan maqsadga muvofiq olib borishi kerak. U mashg'ulotga tayyorlanishi jarayonida oldindan zarur didaktik materiallarni tayyorlashi, o'yinni uyushtirishni nazorat qilishi yakunlash, baxolash va rag'batlantirish kabi barcha tadbirlarni belgilab olishi lozim. O'yinlarning ta'limiy resurslarini anglash bolalarning fizik psixik va shaxsiy rivojlanishdagi kamchiliklarni diagnostik profilaktika va korreksiya qilish maqsadida o'yinlarda o'yinlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lish maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida o'rinli korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish asosida yotadi. Bunda o'yin o'zining ikki tomonlama ta'sirini namoyon qiladi: birinchi tomondan bolaga va bolalar jamoasining barchasiga ta'sirini,, ikkinchi tomondan kamchiliklarning ta'sirini namoyon qiladi. Bu esa o'yinning xususiy metodikasi bilan korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalar o'rtasidagi organik bilishning o'rnatishga olib keladi. Ko'pchilik pedagoglar kar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun sharoitlarni yaratishda o'yinlardan foydalanish to'g'riligini ko'rsatib o'tishgan. Olimlarning fikricha turli sabablarga ko'ra boshqa bolalardan rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar sekin fikrlaydi, rivojlanadi va har qanday chalg'itishlarni tushunmaydi. Bundaylar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular maktabda o'yinlarsiz rivojlanish o'rniga savodsiz qo'rquvchan, vaqtni bekor o'tkazuvchilardan bo'lib qoladi. Agar pedagog mashg'ulotni o'yin tarzida olib borsa , bunday bolalarga kam harakatlikdan chalg'ituvchi yana faoliyatiga ta'minlovchi erkin energiyali o'yinlardan kam harakatlanuvchi bolalarni qobiliyatlarini ochishga yordam beradi. Pedagog ularning rivojlanishini oshirishi va bu yo'lda kerakli bebaxo yordamni berish mumkin ushbu omil bolalarning kelajak hayotida o'z samarasini ko'rsatadi. Bolalar o'yin orqali turli harakatlarni bajarishlari mumkin bunday harakatlar bolaning rivojlanishida muhim ekanligiga shakl shubxa yo'q. Tabiat bolaga harakat qilishi uchun tug'ma intilish berdi, uni muskul quvonchi sezgisi bilan ta'minladi va bu muskul hisobiga bola harakatlana boshladi. Harakat faolligi inson organizmining asosiy genetik asoslangan biologik ehtiyojdir. Ichki muhit doimiyligini saqlash olim bo'lgan harakat funksiyasi inson organizmi uning mavjudlik sharoitlarini o'zgarishiga tez moslashuvini ta'minlaydi. Yugurayotgan, o'ynayotgan, va sakrayotgan bola chuqur va tez nafas oladi. Uning yuragi tez uradi. Yuzlari qiziydi va yaxshi qo'zg'algan holatga o'tadi deb yozadi. Muskullar qanchalik faol ishlasa inson shunchalik xayotga qobiliyatida bo'ladi. Bolani o'sish va rivojlanish intevsiivligi davrida organizmda suyak muskul sistemasining shakllanishi asosiy hisoblanadi. O'yin maktabgacha yoshdagi kar bolalarning sog'ligi va jamiyat rivojlanishidagi nuqsonlarni nisbatan bartaraf eshitish hamda ikkilamchinuqsonlarni keltirib chiqarish oldini olish qobiliyatiga ega. Ma'lumki nutqiy muloqot faoliyatning alohida turi bo'lib maqsadi fikr almashish o'zaro tushunishni o'rnatishdan iborat. Nutqiy muloqot jarayonida kishilar bir birlariga turli xil

axborotlarni yetkazadilar. Bir birlarini faoliyatga undaydilar, aytilganganlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar. Nutqida muommosi bo'lgan bolalarning ta'lim tarbiyasida nutqni shakllantirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Tilning lug'at zaxirasi uning grammatik qonuniyatlarini egallash tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish ularning ijtimoiy xayotga uyg'unlashuvlari va o'z o'rinlarini topishidagi muommolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Nutqida muommosi bo'lgan bolalar maxsus o'qitilishi va rivojlantiruvchi tasnifga ekanligi, ya'ni uni ushbu toifa bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirish zahirida bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish xamda ijtimoiy xayotga uyg'unlashtirish omili bo'lgan mehnat tayyorgarligini amalga oshirishga qaratilishi keng ko'lamli pedagogik jarayonni tashkil etishni xamda ushbu jarayonda qator tamoyillarga rioya qilish, turli shart- sharoitlarni yaratish lozimligini keltirib chiqaradi. Shaxs faqatgina shaxsiy dialogga asoslangan aloqa sharoitida ya'ni kommunikatsiya orqali shakllanishi mumkin. Ana shu bosh mezon nutqida mummolari bo'lgan bolalarni tilga o'qitishda asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Ya'ni kommunikatsion tizim bu nutqida muommosi bo'lgan bolalarni faqatgina tilga o'rgatish emas, balki ularning ongi psixikasi, shaxsini rivojlantirish muhimdir. Maxsus maktab internatlarda ta'lim dasturlarining mazmuni uning hajmi o'quvchining imkoniyatlarga mos ravishda belgilangan. Ta'lim jarayonida qo'llanuvchi zamonaviy usullar korreksion ahamiyatga ega bo'lish bilan birga nutqida muommosi bo'lgan bolaning imkoniyatiga moslashtirgan xolda ishlab chiqiladi. Biz taklif etgan interfaol ish uslublari aynan mana shu maqsadga yo'naltirgan, o'quvchilarning imkoniyatiga moslashtirilgan bo'lib ularning faolligini oshirish nutqini va ijodiy fikrlashini to'laqonli rivojlantirish, hamkorlikda ishlash va ijod qilishni o'rganish yetakchilik qilish mustaqil fikr bildirish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga qaratiladi.

Guruhli o'yinlar

“Kichrayuvchi gazeta” o'yini. Ushbu o'yin guruh ichida birlashishni o'rgatadi, bundan tashqari bu o'yinni mashg'ulot yakunida chiroyli tugatish uchun qo'llash mumkin.

Kerakli jihozlar: har bir guruhga bittadan gazeta qog'ozi; Vaqti: 10 daqiqa;

O'yinning borishi: qatnashuvchilarning xammasi 3 kishidan toki 6 kishigacha bo'lgan guruhlariga bo'linishadi va gazeta varoqlarini olishadi; Boshqaruvchi quidagicha izoh beradi: xar bir komanda berilgan gazetalarga turishingiz va “biz bir jamoamiz” deyishingiz zarur. sharti shundan iboratki “gazetalardan chiqmagan holda”. Shu tarzda o'yin davom etadi. Gazetalarni birin ketin kichraytirib buklanadi. Oxirida qolgan jamoa mustahkam deb topiladi.

“Leopold” o'yini. Bu o'yin muloqot usullarini shakllantirish, ishonch, har bir inson ko'ngliga yo'l topish usullarini o'rgatadi. Vaqt: 20 minut; Guruh qatnashchilari: 7tadan 15 tagachon;

O'yinning borishi: Guruh ichida bir dona sichqon tanlab olinadi. Qolganlar esa mushuklar bo'lishadi. Sichqonni guruhdan 5 daqiqaga chiqaramiz. Mushuklarni xammasiga qog'ozda ismlar yozib tarqatiladi, ushbu qog'ozlarning bittasiga “Leopold” ismi yozilgan qolganlariga esa boshqa ismlar yoziladi. Mushuklarning vazifasi sichqonga yoqish va u bilan do'st bo'lishdir, bunda faqat Leopold chin do'st hisoblanadi. Barcha mushuklar sichqonga yaxshi gap gapirib uni o'ziga og'dirib olishi kerak. Sichqon kirib mushuklarni savol javob qilib ular orasida Leopoldni topishi kerak bo'ladi.

**“Salfetkani ol” o`yini.** Bu o`yin bolalarda bir birlarini tanishtirish yo`llarini shakllantirishga yordam beradi. Kerakli jihozlar: salfetkalar; Vaqti: 5 minut; Qatnashchilar soni: 6-20 ta odamlar. O`yinining borishi: har bir qatnashchi salfetkalar to`plamidan o`zi hohlaganicha oladi. Qatnashchilar salfetkani olib bo`lganidan so`ng qancha salfetka olgan bo`lsa shuncha o`zi haqida ma`lumot aytadi. Ko`rsatma: bundagi berilgan ma`lumotlar aniq va ishonarli bo`lishi lozim.

**“Ov” o`yini:** bu o`yinni harakatlantirish va tushuntirish maqsadida o`tkazish mumkin. Mashg`ulot o`tkaziladigan joy keng bo`lishi lozim. Vaqti 5 daqiqa; Qatnashchilar cheksiz. O`yinining borishi: hamma keng maydonda turadi va boshlovchi qo`lidagi buyumni ushlaydi. Shu payt u Ov yoki UY degan so`zlarni aytadi. Agar boshlovchi Uy desa qatnashchilar sekin asta yurishadi, agar Ov desa qatnashchilar ikkitadan juft bo`lib turib olishlari kerak agar turmasa u boshlovchi bo`lib qoladi. Izoh: bu o`yinni tezlashtirilgan tarzda olib borilsa qiziqarli chiqadi.

**“Impuls” o`yini:** bolalarni birdamlikka chaqiruvchi o`yin hisoblanadi: Vaqt: 5 daqiqa; Guruh qatnashchilari: cheksiz;

O`yinining borishi: qatnashchilar dumaloq bo`lib olishlari so`raladi va qo`llarini mahkam ushlashlari iltimos qilinadi. O`ng tarafdand birin ketin bir birlarini qo`llarini siqib impuls berishlari so`raladi. Bu ish qilingandan so`ng tezlashish kerakligi tushuntiriladi. So`ngra qatnashchilardan ikki guruhga bo`linish talab etiladi va ikki guruhning birlashgan joyga boshlovchi turadi va guruh tugagan joyga sovg`a qo`yiladi, aytiladi “hozir men qo`llarni tez siqaman kim tez impuls berib guruhni oxiriga olib borsa shu guruh yutishi aytiladi.

Ko`rsatma: bu soat strelkasi bo`yicha hamda vaqt ichida qilish mumkin.

**“Atom va molekular” o`yini:** guruhni xaraklantiruvchi o`yin. Vaqt: 5 minut; Qatnashchilar soni : cheksiz;

O`yinining borishi: Butun guruh dumaloq bo`lib turishadi. Shundan so`ng boshlovchi fizika qonunlarini eslatadi. Ya`ni issiqda tezlashish va sovuqda sekinlashish kerakligini. Agar boshqaruvchi 100 desa tez, 20 bo`lsa sekin harakatlaniladi. So`ngra o`yin boshlanadi. Boshlovchi aytgan raqamlarga qarab bolalar harakatlanishadi va boshlovchi molekular 3 tadan birlashdi degan paytda ular 3 kishidan bo`lib birlashishlari kerak bo`ladi kimda kim 2 yoki 4 kishi bo`lib qolsa o`yindan chiqariladi. Shu tariqa o`yin davom etadi.

Izoh : bu o`yinni tezlashtirgan holda o`ynash yaxshi natija beradi.

**“Mevali salat” o`yini:** Bu o`yinda guruh bilan tanishish va nima yaxshi ko`rishini bilib olish shakllantiriladi; Vaqti: 5 daqiqa;

O`yinining borishi: qatnashchilar dumaloq bo`lib turib olishadi. Shundan so`ng birinchi turgan guruh ishtirokchilari birin ketin bittadan yoqtirgan mevasini aytadi. Birinchi 4 mevani qolgan guruh ishtirokchilari davom ettiradi. Boshlovchi guruh o`rtasiga turib mevalardan birini aytadi va shu mevani nomini olgan mevali shaxslar o`rin almashtirishadi. Masalan; olma, gilos, o`rik, shaftoli. Agar boshlovchi mevali salat desa hamma qatnashchi o`rin almashtiradi. Bu o`yin tezlashtirgan holda o`tkazilsa yaxshi natija ko`rsatadi.

**“Uch savol” o`yini:** Bu o`yin bolalarni yanada faol bo`lishga chaqiradi. Kerakli jihozlar: qog`oz va qalamlar. Vaqti: 10- 20 daqiqa, Qatnashchilar: 6-20 kishi;

O`yinining borishi : hamma o`quvchilar dumaloq bo`lib turib olishadi. Hamma o`quvchilarga boshlovchi tomonidan tushutiriladi. Tasavvur qilin sizning oldingizda hamma savollarga javob

beruvchi kitob turibdi. Siz faqat uchta savol berishingiz mumkin. Siz shu savollarni qog'ozchalarga yozing.

Hamma ishtirokchi savollarni yozadi va boshlovchiga beriladi, so'ngra almashiladi. Mashg'ulot davomida ma'lumotlar berib boriladi. Mashg'ulot oxirida savollarga javob olganligi aytiladi.

“Taksi” o'yini : bu bolalarni muloqot qilishga chorlaydi.

Vaqt: 10 daqiqa; Qatnashchilar: 6-20 daqiqa;

O'yinning borishi: Boshqaruvchi qatnashchilarni juft bo'lib turishini so'raydi. Va tushuntiradi: sizlar kech bo'lganda kinoda chiqdinglar va sizlardan 10 m nariga taksi to'xtadi. Siz iloji bo'richa tezroq uyga ketishingiz kerak. Faqat bitta inson taksiga chiqishi mumkin. Sizni vazifangiz juftingiz bilan kelishishdir. Kelishilgan holda kimdir ketishi kerak.

Izoh: bunda boshqa vaziyatlarni ham qo'llash mumkin.

“To'rt devor” o'yini: Bu o'yin bolalarni olingan ma'lumotni amalda qo'llashda yaxshi natija beradi. Eslash qobiliyatini shakllantiradi; Kerakli jihozlar: 4 dona A4 format qog'ozi. Qog'ozlar orqasiga “men roziman”, “men uncha rozi emasman”, “rozi emasman”, “umuman rozi emasman”, Bundan tashqari bu narsalarga rozi insonlar ro'yhati ham so'raladi. Vaqt: 10-15 daqiqa;

O'yinning borishi: So'zlar yozilgan “men roziman”, “men uncha rozi emasman”, “rozi emasman”, “umuman rozi emasman” qog'ozlar devorning taraflariga ilinadi. Har bir devorga bittadan ilinadi. Boshlovchi ma'lumotlar va savollar beradi. Qatnashuvchilar o'zlarini fikrlarini bildirgan holda yozuv yozilgan tarafga o'tadi. Bunda har bir qatnashchi o'zining nima uchun u yerga o'tganligini aytadi va savol javob o'tkaziladi.

“So'zni top” o'yini. Sinf guruhlariga bo'linadi va har biri guruhga birinchi bo'g'inni yozilgan, keyingi bo'g'in o'rniga nuqtalar qo'yilgan kartochkalar beriladi. Guruhlar qancha ko'p so'z topsalar shuncha ball to'plab boradilar. Masalan, kartochkalarda quyidagi misol.

Ki...

Ki...

Ki.... (javobi: kino kitob kiyik va boshqa sozlar)

“Quvnoq kartochka” o'yini. Maqsadi. Xushomadni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: koptok.(ruchka yoki ip); Vaqt: 5 minut.

O'yinning borishi: hamma qatnashchilar dumaloq bo'lib turadilar va koptokni olib unga sifat (chiroyli so'zlar) aytiladi. So'ngra o'yinni tezlashtirish maqsadida bir birimizga koptokni otamiz .

“Vaxolanki” o'yini. Stressni yo'qotish, ishchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida foydalaniladi.

Kerakli jihozlar: qogoz va ruchkalar.

Vaqt: 15 daqiqa.

O'yinning borishi: o'qituvchi hamma ishtirokchilarga qog'oz tarqatib muommolar yozib berishlari so'raladi. Bunda maxfiylik alohida o'rinni egallaydi. So'ngra varoqlarni aralashtirib ularni qaytadan qatnashchilarga beradi va uni ularga yechish yo'llarini izlashga undaydi vaqt beradi. Xamma gap eshutilganidan so'ng muommolar yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Izoh; bu o'yinni shu muommoni yaxshi tomonini ko'rsatish yuzasidan xam ko'rish mumkin. Xar bir fikr aytilayotganda “Vaholanki” so'zi aytilishi shart.

**“Zinapoya” o`yini.** Maqsadi- qatnashchilarga o`zini baholashni o`rgatadi. Kerakli jihozlar: qogoz va ruchka. Vaqti 10 daqiqa.

O`yinining borishi: qatnashchilarga 10 ta pog`onali zinaning rasmi chizish aytiladi. So`ngra o`qituvchi qatnashchilardan zinaning qaysi pog`onasidaligingizni tasavvur qilib belgilang deb aytiladi. Vazifa bajarilgach o`qituvchi qatnashuvchilar bilan suhbat olib boradi.

**“Figurali qurilmalar” o`yini.** Maqsad guruhni jipslashtirish va hamfikrliklarni shakllantirish, zarur paytda qaror qabul qilish uchun harakat qilishni o`rgatadi. Vaqti 15 minut.

O`yinining borishi: qatnashchilar tartibsiz ravishda xona bo`ylab aralashib yuradilar. Boshlovchining buyrug`i bo`yicha ko`zlarini yumadilar va boshlovchi aytgan geometrik figura shaklida saflanishga harakat qilishadi, doira, uchburchak, kvadrat, zig-zag. Ko`zini ochib yuborganlar o`yindan chiqadilar. Saflanish tugagach, boshlovchining buyrug`iga ko`ra ko`zlar ochilib natijada nima hosil bo`lgani ko`riladi.

Izoh. Qatnashchilardagi qiyinchiliklar so`raladi va vaziyatdan qanday chiqqanliklari so`raladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеева М.М., Яшина В.И. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пос. М.: Изд. Центр Академия, 1998. 448 с.
2. Арушанова Л.Г., Рычагова Е.С. Игры со звучащим словом // Дошкольное образование. 2008. №9. С. 4-5.
3. Бондаренко А.К. Дидактические игры в детских садах. М.: Просвещение, 1999. 160 с.
4. Бородич А.Н. Методика развития речи детей дошкольного возраста. М.: Профессиональное образование, 1984. 202 с.
5. Варенцова Н.С., Колесникова Е.В. Развитие фонематического слуха у дошкольников. М.: Академия, 1997. 221 с.
6. Выготский Л.С. Игра и ее роль в психологическом развитии ребенка // Вопросы психологии. М.: Просвещение, 1966.
7. Гельфан Е.М. Игры и упражнения для маленьких и больших. М.: 1969. 148 с.
8. Гельфан Е.М., Шмаков С.А. От игры к самовоспитанию. М.: Педагогика, 1971. 271 с.
9. Ефименкова Л.Н. Формирование речи у дошкольников. М.: Просвещение, 1981. 112 с.